**Аннотация:** В данной научной статье представлен анализ результатов научных и практических исследований возможностей повышения экономической эффективности выращивания винограда Учкора. Даны обширные аналитические выводы о важности социално-экономического развития села, повышения уровня жизни, здоровья и экономической эффективности населения. Сравнивались свойства винограда и изюма, противораковые свойства моркови и лимонов, выращенных в этом селе, сравнительные экономические показатели, результаты экономического анализа в виноградарстве Самаркандской области, виноградарстве Учкоры и виноградарстве Самаркандской области в 2021–2022 годах. Он включает площадь виноградников, валовой урожай, валовой доход, общую стоимость, прибыль, услуги, инфраструктуру и рентабельность. Даны научно-практические рекомендации и предложения по организации “Стол заказов”, использованная литература.

**Ключевые слова:** село Учкора, виноград, кишмыш, товары, экспорт, рентабельность, экономическая эффективность и др.



## KIRISH

**2024-yil – “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili”**

*Uchqora mayizini yemabsiz – dunyoga kelmabsiz.  
Xalq maqoli.*

Uchqora qishlog‘i uzumchilikka va mayizchilikka iqtisoslashgan qadimiy qishloq bo‘lib, u mamlakatimizning Navoiy viloyati, Xatirchi tumani markazining shimoli-sharqi tomonida joylashgandir. Keyingi yillarda mamlakatimizda aholi daromadlarini ko‘paytirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish, uy-joy bilan ta’minlash tadbirlari keng ko‘lamda amalga oshirilmogda. Meva-sabzavotchilik klasteri tarkibiga kiradigan korxonalar, dehqon, fermerlar faoliyatida kachiliklar ko‘p bo‘lgani sababli, kutilgan natijalarni bermayotir. Biroq mazkur tumandagi tarixda dong‘i ketgan Uchqora mayizi haqidagi xalq og‘zaki rivoyatları (rivoyatlar haqida kelgusi ilmiy va ommobop maqolalarimizda keltiramiz) bugungi kunda esga olinmayapti. Faqatgina 30 dan ortiq ilmiy maqolalarimizda bu haqda kiritilgan, xolos. “Buyurtma stoli” va raqamli iqtisodiyotni joriy etilmaganligi tufayli, rejalashtirilgan amaliy ishlardan talab darajasida emasligi ma’lum bo‘lib qolmoqda. Maqolada xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati kiritilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zekiston Respublikasi Prezidentining “2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo’llab-quvvatlashning qo’shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 2023-yil 5-aprel, PQ-113-sonli qarori qabul qilindi [2]. Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2023-yilda amalga oshirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish, ichki bozorda aholi talabini ta’minlash va narxlar barqarorligini saqlash hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni iqtisodiy va moliyaviy qo’llab-quvvatlash va boshqa maqsadlar kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagи “O‘zbekiston respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish” to‘g‘risidagi PQ 4653-sonli Qarori qabul qilindi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023–2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 3-avgustdagи PQ-260-sonli Qarori qabul qilingan edi [1]. Ushbu qarolarni ijrosini amalga oshirish borasida joylarda amaliy ishlardan bajarilmoqda. 260-qarorga binoan mamlakatimizda uzumchilik va vinochilik sohasini kelgusida yanada barqaror rivojlantirish, yangi istiqbolli sanoatbop uzum navlarini ko‘paytirish va yetishtirishni yo‘lga qo‘yish, qayta ishlash korxonalarini xom ashyo bazasi bilan ta’minlashni mustahkamlash va moliyaviy qo’llab-quvvatlash, malakali mutaxassislarini tayyorlash, shuningdek, uzum va vinochilik mahsulotlari eksporti hajmlarini oshirish maqsadi belgilangan. 2023–2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sanoatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlangan. Ilmiy maqolani tayyorlashda quyidagi usullar qo’llanildi. Metodlar: monografik, statistik, taqqoslash va boshqa usullar yordamida tahlil qilganmiz.

## TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

O‘zbekistonda 2023-yili 1,7 mln tonnadan ko‘proq uzum yetishtirildi. Respublikamiz qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, aholini ehtiyojini to‘liq ta’minlash va ortiqchasini xorij mamlakatlariga eksport qilish imkoniyatlari egadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-260-sonli Qarorning 2-bandida: respublikada uzumchilikni rivojlantirish bo‘yicha kengash tarkibi ham tasdiqlandi. Kengashga esa quyidagi vazifalar yuklatilgan: uzumni yirik maydonlarda, klaster va kooperatsiya usulida yetishtirish orqali sohada qo’shilgan qiymat zanjirini yaratish, uzumni saqlash, saralash va qayta ishlashni rag‘batlantirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish; aholi xonardonlari va tomorqa yer uchastkalarida uzumchilik sohasini keng rivojlantirish, yangi tashabbuskorlarni aniqlash hamda ularning manzilli dasturini tasdiqlash; qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligi faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarga rozilik berilishi aytilgan [1].

Eng ahamiyatlilardan biri qarorning 6-bandı bo‘lib, unda 2023-yil 1-avgustdan boshlab uzum mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo’llab-quvvatlashning masalasi kiritilgan, unda yangi uzumzorlarni 1 gektardan 10 gektar-gacha bo‘lgan maydonlarda barpo qilish bo‘yicha loyihibar Agentlik tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyalashtiriladi, yirik uzumchilik plantatsiyasi shaklidagi loyihibar “Qishloq qurilish bank” ATB kreditlari hisobidan amalga oshirishi belgilangan. Qarorning 10-bandida esa, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi xorijiy milliy tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda mahalliy korxonalarda yuqori qo’shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalarini joriy qilish choralarini ko‘rishligi topshirilgan [1].



Respublikamizda uzum yetishtirish 2022-yil mos davriga nisbatan 1,3 foizga kamaygan. Jumladan: Navoiy viloyati – 85,6 ming tonnaga; Samarqand viloyati – 639,2 ming tonnaga [12,13]. 2023-yilda uzum,mayiz mahsulotlari eksporti sur'atlari quyidagicha bo'ldi (qiymatga nisbatan): O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda uzum 86,5 mln. AQSh dollari yoki 126,1 ming tonna yoki 55 foiz; uzum- quritigan-mayiz 68,6 mln.dol. yoki 57,3 ming tonna, 18.3 foiz bo'ldi [12,13,16]. Iqtisodiy tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, bandlikni ta'minlash va kambag'alilikni kamaytirishda Uchqora qishlog'iда yashovchi mehnatga yaroqli aholining 24,3 foizining doimiy ish joylari yo'q. Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi qadimdan uzumchilik va mayizchilikka ixtisoslashgan Uchqora qishlog'i haqida ilmiy izlanishlarni bir qismi sifatida aysak, bu qishloq Hindiston astronomlarining aniqlashicha (Navoiy shahridagi,pedagogika institutini o'qituvchisi Mirzayev hamed ma'lumoti) yer sharining 41-meridiani va 41-parallelida qora toshli tog' bag'rida joylashgan. Uzum tarkibidagi qandlik miqdori 38% ga yetadi (marhum Uchqora farzandi, i.f.n., dotsent Hamrayev Obloqul ilmiy izlanishlari ma'lumotidan) [12,13]. Sobiq Ittifoq davrida Uchqora mayizini kosmonavtlar kosmosda iste'mol qilish uchun Moskvadan vakillar kelib, qishloqdagi dehqonlardan uzum va mayiz mahsulotlaridan maxsus buyurtma asosida olib ketishgan (marhum, O'zbekiston Qahramoni,sobiq Samarqand viloyati partiya tashkilotining birinchi kotibi, O'zbekiston Respublikasi "Nuroniyilar" qo'mitasi raisi bo'lib ishlagan Bektosh Raximov ma'lumoti),chunki Xatirchi tumani o'sha davrda Samarqand viloyati tarkibida bo'lgan [12,13].

O'zbekiston hududlarida yetishtirilayotgan uzumlar tarkibidagi qand miqdori 26 foizni tashkil qiladi. Jahondagi uzumlardagi qand miqdori 17-18 foiz bo'lganda uzum iste'mol uchun ishlataladi.Respublikada 2023-yil hosili uchun barcha toifa xo'jaliklari tomonidan yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining prognoz hajmlari tasdiqlangan edi. Respublikamizda jami 1 948 400 tonna uzum mahsuloti yetishtirilishi rejalashtirildi. Respublikamizda yetishtirilgan uzumni Navoiy viloyatida yetishtirilgan uzum miqdori 4,9 foizini, Samarqand viloyatida yetishtirilgan uzum esa 36,4 foizni tashkil etmoqda. Shundan, Navoiy viloyatida 94 504 tonna uzum yetishtirildi [16]. 2022-yil 24-26-mart kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasida ilk bor Toshkent xalqaro investitsiya forumi bo'lib o'tdi. Unda 56 mamlakatdan 1500 dan ortiq kompaniya vakillari ishtirop etdi. Xorijlik investorlar uchun barcha qonunchilik bazasi yaratilgani aytildi, investorlarni sarmoya kiritishga chaqirildi. Forumni o'tkazishdan asosiy maqsad – O'zbekiston bozorida o'z faoliyatini kengaytirishdan manfaatdor bo'lgan xorijiy investorlar, moliya-iqtisodiy tashkilotlar, energetika, mashinasozlik, elektrotexnika, axborot texnologiyalari, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati, qurilish va boshqa soha vakillarini jalb etishdan iborat. Prezident ma'rurasida 5 yil ichida yalpi ichki mahsulot 100 milliard dollarga, yillik eksport hajmi esa 30 milliard dollarga yetishi kutilayotgani, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga yetkazish borasidagi sa'y-harakatlari mamlakatimiz iqtisodiy qudratini oshirishi ta'kidlandi [1].

Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda 2023-yili 1,7 million tonnadan ko'proq uzum yetishtirilgan. Uzum yetishtirish 2022-yilga nisbatan 1,3 foizga kamaygan. Lekin, uzum eksporti 2023-yilda 86,5 million AQSH dollariga teng bo'ldi. Ya'ni 126,1 ming tonna yoki qiymatga nisbatan 55,9 foizga teng bo'ldi. Uzum yetishtirish 2022-yilga nisbatan Samarqand viloyatida – 639,2 ming tonnaga, Navoiy viloyatida – 85,6 ming tonnaga kam yetishtirildi.Qarorlarni amalga oshirilishi bo'yicha Uchqora uzumlarini sifatlari qilib yetishtirish, ularni ko'paytirish, saqlash, quritish jarayonlarida ko'pgina kamchiliklarga yo'l qo'yilishini aniqladik,ular quyidagilar:

- 1) toklarni ochishda ehtiyoitsiz qilish;
- 2) iqlimni e'tiborga olmaslik;
- 3) toklarni ochish,tuprog'ini og'darish, xom tok qilish, uzumlarni uzish,tashish,saralash,quritish jarayonlarida har xil mehnat resurslarining ishtiropi;
- 4) uzumlarni noto'g'ri uzish;
- 5) tashish idishlarining talabga javob bermasligi;
- 6) uzumlarni ishkomlarga ilish, yoyish joylarining talab darajasida emasligi;
- 7) uzumni tashib olib kelib quritish maydonlariga ehtiyoatkorsizlik bilan to'kish;
- 8) oftobda qurigan uzumlarni navbat bilan og'darib chiqish jarayonining buzilishi;
- 9) uzumlarni quritish maydonlarini somonli loy bilan shuvamaslik;
- 10) oftobda quritiladigan uzumlarni soya maydonlarda quritishga joylash;
- 11) uzumlarni soyada quritishda molxonalar shiftiga simni tortib ilishlik;
- 12) qurigan mayizlarni uch xil g'alvirda elab katta-kichiklikga ajratmaslik;
- 13) mayizlarni sotishda ichki va tashqi bozor kanallarini aniqlamasligi;
- 14) uzum va mayizlarni sotishda tashkil etilgan klasterlarni tanlab, yil boshida sotish va sotib olish shartnomalarini tuzmaslik;
- 15) idishlarni tanlab mayizlarni joylashtirish, mayizlarni choy qutilarida, hammalarda, qoplardagi idishlarda saqlash talablariga javob bermasligi va boshqa sabablar mavjuddir.

Mahsulotlarni yetishtirish, yig'ish, tashish. saqlash, qayta ishslash, sublimatsiya qilish,sotish ishlari olimlarning ilmiy-amaliy tajribalari va tavsiyalariga asosan tashkil qilinsa, innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy etish hisobiga mahsulotlar isrof bo'lishi kamayadi. Chunki, agrotexnik talablar to'liq bajarilmay



kelmoqda. Tokni ko'mish, ochish, kasallik, zararkunandalardan, sovuqdan, ayrim yillari do'ldan saqlash imkoniyatlariga amal qilinmaydi natijada hosilning 30-40 foizi jarayonlarda nobud bo'lmoqda. Keyingi davrlarda bu taromoqqa e'tibor kuchaytirilganligi tufayli uzum va mayizlarimiz bevosita xorijga eksport qilish imkoniyatiga egadir. Meva-sabzavot va uzum mahsulotlari saqlaydigan zamonaviy omborxonalar Uchqora qishlog'ida bo'lmagan, hozir ham yo'q. Har yili respublikamizda jami 16 mln. tonnadan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilmoqda. Shundan 30-40 foizga yakini qayta ishlangan, uzumlar quritilib mayiz qilinib chetga eksport qilinmoqda.

Hozirda mamlakatimizda 300 dan ortiq meva-sabzavot va uzumni qayta ishlash korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Uchqora qishlog'ida asosan qishga saqlashga eng qo'lay bo'lgan nav toyfi uzumidir. Lekin, tajribalar shuni ko'rsatadiki, Uchqora qishlog'i dehqonlari oddiy holatda pishgan navdani uzumi bilan qirqib olib, alovda yonib bo'lgan quruq tok kundachalari yoki yonib bo'lgan ko'mir bo'laklari solingen suvli idishlarda yilning may oyini oxirlarigacha salqinroq binolarda uzumni yaxshi holatda saqlab kelishadilar. Uzum va mayiz orqali o'z oilalarini iqtisodiy-ijtimoiy holatini saqlab qoluvchi faol tadbirdorlar, haqiqiy ishbilarmonlar va xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan biznesmenlar endilikda boshqa zamonaviy innovatsion texnika va texnologiyalarni, mahalliy va xorijiy tajribalarni qo'llash natijasida yil davomida iste'molchilar buyurtmalarini bajarish imkoniyatlariga ega bo'lismoqdalar. Uchqora uzumlari mayiz qishlog'a yo'naltirilgandir, ayrim dehqonlar daromadning oson yo'lini qilib, uzum holatida sotuvchilar ham yo'q emas. Uchqora uzum va mayizlarini, asosan, Samarqand viloyatining Urgut tumani tabdirkorlari joyida avans pulni dehqonlarga qoldirib to'liq sotib olishadilar va xorij mamlakatlariga eksport qilishadilar.

Uzumni qayta ishlash natijasida esa undan vino, mayiz, uzum asali olinadi. Sharbat, musallas, shinni, marinadlar tayyorlash, istemol qilinadigan vinolardan uzum sirkasi, uzum turpidan spirit, vino kislota, tanin moddasi, uzum moyi, bo'yoqlar na boshqa yangi mahsulotlar olishda foydalilanildi. Bular orasida uzumni quritish orqali olinadigan mayiz shifobaxsh xususiyatga egaligi, uzoq saqlanishi va tashishga qulayligi bilan ajralib turadi.

U oshqozon va ichaklarni begona moddalardan tozalaydi, jigarni yaxshilaydi, yo'tal, buyrak kasalliklarida yordam beradi, ayniqsa, tanadagi qon miqdorini ko'paytiradi. Navoiy viloyati Xatirchi tumanining Uchqora qishlog'ida yetishtiriladigan uzumdan asosan mayiz tayyorlanadi. 1800 gektardan ortiq maydonga ega bo'lgan bu qishloq hududida 5 mingdan ziyod kishidan iborat aholi istiqomat qiladi. Shundan 400 hektar maydonda uzum yetishtiruvchi 21ta fermerlarga ajratilgan bo'lib, bir yilda gekgaridan o'rtacha 8,5 tonna, jami 3400 tonna uzum hosili yig'ib olinadi. Hosilning 25 foizi mahalliy bozorlarga, ya'ni, 850 tonna uzum bozorga olib chiqiladi, qolgan 2250 tonnasi qayta ishlanib, mayiz, shinni tayyorlanadi. Uzumdan o'rtacha mayiz chiqishi, kishmish navlar uchun 3 kg uzumdan 1 kg mayiz chiqadi, ayrim holatlarda 3,5-4,0 kg uzumdan 1 kg mayiz olinadi yoki 33,3-25,0 foizni tashkil qiladi. 1 kg mayizning sotish bahosi o'rtacha 25 ming so'm bo'lsa, unda qishloqda fermer xo'jaliklari hisobiga yetishtiriladigan mayizdan olinadigan yalpi daromad 56,3 mlrd so'm (2250 kg x 25000 so'm) ni tashkil etadi.

**1-jadval:** Uchqora qishlog'i uzum-mayizchilik klasterida 1 yil davomida uzum-mayizdan olinadigan daromad va xarajatlar hisobi

T/r	Ko'rsatkichilar	
1	Klaster nomi	Uchqora
2	Jami ekin maydoni, ga	400
3	Hosildorlik, s/ga	85
4	Yalpi hosil, tonna	3400
5	Jami xarajat, mlrd. so'm	38,2
6	Jami daromad, mlrd. so'm	56,3
7	Foya, mlrd. so'm (+,-)	+18,1
8	Rentabellik darajasi, %	47,4
9	1 gektarga, mln.so'm:	
	xarajat	95500
	daromad	140750
10	1 tonna mahsulot, mln.so'm:	
	xarajat	11235
	daromad	16558

Iqtisodiy tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, Uchqora qishlog'i uzum-mayizchilik klasterida 400 gektar uzumzor bo'lib, hosildorlik 85 ming sentnerni tashkil etmoqda, rentabellik darajasi esa o'rtacha 47,4 foizni tashkil etmoqda.



Qishloqda yashovchi 850 kishi o'z tomorqasida uzum yetishtirib, undan uzum va mayiz olish bilan shug'ullanadilar. O'zbekiston Respublikasi iqtisodini rivojlantirishda Prezident Qaror va Farmonlarida uzumzorlar maydonini kengaytirish,sifatli, xavfsiz oziq-ovqat bilan ta'minlash va ekologik toza mahsulot hajmini kengaytirish, yuqori sifatli oziq-ovqat qimmatiga ega eksportbop uzum navlari ustida ilmiy ishlar olib borilishi lozimligi aytib o'tilgan. Tok qimmatbaho subtropik o'simlik. BMT oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha umumiy olinadigan uzumdan, asosan, vino uchun 83%, ho'lligida yejish uchun 12%, 5% esa quritish (mayiz) tayyorlashda ishlataladi. Hozirda mavjud tokzorlarning 35% yosh toklar, 60% simbag'azga ko'tarilmagan (Uchqora qishlog'iда boshlab o'rnatilgan simbag'azlar samarali bo'limganlari uchun dehqon,fermerlar tomonidan olib tashlandi). Shu sababli, ularga o'z vaqtida agrotexnik tadbirlar o'tkazilishi xomtok, kesish va shakl berish, kasallik va zararkunandalarga karshi kurashish, mexanizatsiyadan foydalanish imkon yo'q, natijada, hosilning 25-30% yo'qotilmoqda. O'zbekistonda tokchiligi istiqbolli bo'lgan tog' va tog'oldi hududi bo'lganligi sababli Uchqora qishlog'i shu talabga mos bo'lib hisoblanadi Qishloq hududlarida yetishtirilan uzum o'zining sifati, hosildorligi va qand miqdorining ko'pligi bilan yangi sanoat bazasini yaratish mumkin. Sifatli mayiz mahsuloti, xo'raki uzum olinadi.Qilingan sarf-xarajat 3-4 yilda o'zini qoplaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

### Xulosalarimiz:

1. Navoiy viloyati, Xatirchi tumani tarkibidagi "Uchqora" qishlog'iда zamonaviy xizmat ko'rsatish infrazilmasi subyektlari tashkil etilmagan, toza ichimlik suv inshootlari mavjud emas,gaz umuman yo'q hisobi;
2. Uzoq qishloqlarda mahalliy va xorijiy investorlarni qishloq xo'jaligi tarmoqlariga jalb etish, qo'shma dasturlar va qo'shma korxonalar faoliyatini tashkil qilish juda sust;
3. Kambag'alchilikni kamaytirish uchun asosan Xitoy Xalq Respublikasi tajribalari va faol tadbirkorlarimizga qo'yilgan talablarga amal qilish, mahalliy sharoitda mulkchilikning har xil turlari hamda shakllarining uzoq qishloqlarda joriy etilmaganligi natijasida bu yo'nalish past darajada bo'lib qolmoqda;
4. Maqolada Hamed Mirzayev, Obloqul Hamrayev, Bektosh Raximovlarning haqiqiy ma'lumotlari kiritilgan;
5. 300 dan ziyod ilmiy ishlarimizning faqatgina 30 tasidan ortiq ilmiy maqolalarimizda Uchqora uzu-mayizi haqida ma'lumotlar kiritilgan,xolos;
6. Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida, jumladan, Uchqora klasteri faoliyatida, uzoq qishloqlarda mahalliy va xorijiy investorlarni qishloq xo'jaligi tarmoqlariga jalb etish, qo'shma dasturlar va qo'shma korxonalar faoliyatini tashkil qilish umuman yo'q, chunki ko'pchilik shunga tayyor emas.

### Takliflarimiz:

1. Respublikada, jumladan, Uchqora va boshqa qishloqlarda rivojlangan xorij mamlakatlarining uzum-chilik-mayizchilikga ixtisoslashgan kompaniyalari bilan qo'shma dastur va qo'shma korxonalar tuzish;
2. Uzumchilik klasterlarida ishlab chiqarish va uni qayta ishslash korxonalariga zamon talablariga mos faoliyatni yo'lga qo'yish, investitsiyalar jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, eksport hajmini oshirish va ularni yangi bozorlarini topish, sotuv kanallari sonini ko'paytirish, kengaytirish va takomillashtirish kabi vazifalarni mas'ullarga muddat qo'yilgan holatda yuklashni tashkil etish;
3. Olim va pedagoglar ishtirokida ularning ilmiy-amaliy tavsiyalari asosida markazlashgan "Buyurtma stol'lari ishini qaytadan mukammallahsgan holda tiklash, ayniqsa qishloqlarda;
4. Uchqora uzum-mayizchilik klasterini zamon talablar darajasida "Buyurtma stoli"ga ega bo'lgan,oziq-ovqat qoldiqlarini va boshqa chiqindilarni yig'ishda to'lov mexanizmini joriy etgan holda qaytadan tashkil etish (chunki Samarqand shahrida 1989, 1990, 1991-yillarda bizning tavsiyalarimiz asosida "Buyurtma stoli" mavjud edi, hozirgi kunda ayrim xususiy korxonalarda tarqoq holda faoliyat ko'rsatmoqda,xolos);
5. Aholi turmush darajasini yanada yaxshilashda,bandlik va kambag'allikni kamaytirishda hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida uzum-mayish yetishtiradigan va eksport qilishiga imkon yaratadigan Uchqora klasterida infratuzilma subyektlarini tashkil etish va uning faoliyatini raqamlashirish;
6. Kambag'allikni kamaytirish va ishsizlikka barham berish uchun joylarda, ayniqsa uzoq qishloqlarda faol tadbirkorlikda mulkchilikning har xil turlari (ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va konsalting turlari) va shakllarini (yakka tartibdagi tadbirkorlik; xususiy tadbirkorlik; jamoa tadbirkorligi; aralash tadbirkorlik, o'z-o'zini band qilish) hayotga joriy etish;



7. Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi “Uchqora” qishlog‘i uzumlari va mayizlari respublikada har yili o’tkaziladigan “Uzum sayili” tanlov ko’rgazmasida ishtirot etishini ta’minalash va rag’batlantrish;
8. Uchqora klasterida yoshlар bandligini ta’minalashda va kambag’allikni kamaytirishda infratuzilma turilarini tashkil etishning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi imkoniyatlarni ishga solishda ilg’or xorij mamlakatlari bilan qo’shma loyihalar va qo’shma korxonani tuzish kerak;
9. Mamlakatning barcha yo’nalishlarida shaffoflikni (korrupsiyaga yo’l qo’ymaslikni) amalga oshirish maqsadida taraqqiyotga erishish uchun ayniqsa uzoq qishloqlarda raqamli iqtisodiyotga o’tishdan oldin shu yo’nalishda faoliyat ko’rsatmoqchi bo’lgan faol tadbirkorlarni nazariy va amaliy bilimlarini oshirishga joylarda qisqa muddatli o’quv-seminarlarini uyushtirish;
10. Uchqora qishlog‘ida yashayotgan aholi tarkibidan uzum va mayizlarni mahalliy hamda chet el mamlakatlariga eksport qilish bo’yicha mutuxassislarni, ya’ni xalqaro talablarga javob beradigan savdogarlarni tayyorlash masalasiga jiddiy yondashish.

**Foydalilanilgan qo’shimcha adabiyotlar:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023–2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to’g’risida” 2023-yil 3-avgustdagи PQ-260-soni qarori.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023-yilda qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo’llab-quvvatlashning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori, 2023-yil 5-aprel,PQ-113-soni qarori.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ma’ruzasi. 2022-yil 24-26-mart kunlari mamlakatimizda ilk bor Toshkent shahrida o’tkazilgan xalqaro investitsiya forumi (TXIF) materiallari.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-martdagи “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlarini ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta’minalashga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” PF-6186-son Farmoni.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish” to’g’risidagi qarori, 2020-yil 26-mart,PQ4653-soni.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo’llagan Murojaatnomasi:// “Xalq so’zi”, 2020-y., 25-yanvar.
7. O’zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo’jalik ekinlari Davlat Reestri. –Toshkent. 2022. – B. 108.
8. O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari 2024-y.
9. Temurov Sh. “Uzumchilik” Toshkent-2002-3-137-b. Maxsus son. 2022 O’zbekiston qishloq va suv xo’jaligi UO’T: 665
10. Samarqand viloyati qishloq xo’jaligi va statistika boshqarmasining 2021–2022-yil yakunlari bo’yicha hisobotlari.
11. Qahhorov B.Sabzi sog’lom:Sabzi (Mashhur amerikalik shifokori N. Uoker sabzi haqida ko’plab kitoblar yozgan. O’zekiston qishloq xo’jaligi jurnalı, 2002-yil №5 59-bet).
12. Mualliflarning ilmiy va amaliy tadqiqotlari izlanishlari natijalari hamda Hamed Mirzayev, Obloqul Hamrayev, Bektosh Raximov ma’lumotlari.
13. Izlanuvchilarning ma’lumotlari va keyingi shu yo’nalishdagi huquqiy asoslar.
14. Mirzoxidov U., Mirzoxidov B. “Bog’dorchilik, uzumchilik va vinochilikni istiqbolli rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati” mavzusidagi Respublika miqyosida o’tkazilgan ilmiy va ilmiy-texnik anjumani maqolalari to’plami. Toshkent-2019-yil. 205-bet.
15. Mirzaxidov B., Fayziyev J., Ochilov U., Egamberdiyev P. Mintaqalararo mevachilik va uzumchilikning holati, muammo-lari, istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami.Toshkent-2018-yil. 261-bet.245-bet.
16. Ibodullayevich O. R. F., & Turdibayevich K. R. (2023). QISHLOQ XO’JALIGIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. MASTERS, 1(1), 119-126.
17. Salamov I., Nazarova M., Kazakova Z., Jonibekov F., Kudratov R., Ulmasova O., & hamdamova N. (2024). Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag ‘al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari.
18. Tashmuratovich, E. U. (2023). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF PROCESS REALIZATION IN FARM ENTERPRISES. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 20–28.
19. Tashmuratovich E. U. B., & Xaitovic Y. S. (2024). G ‘ALLACHILIK KLASTERLARIDA TRANSFERT BAHO BELGILASHNI USULLARI TAHLILI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(01), 133-141.
20. Salamov I., Jonibekov F., Kazakova Z., & Nazarova M. (2022). The Role of Investments in Ensuring the Economic Stability of Livestock and Prospective Opportunities. INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE, 1(3), 1-4. Mejdunarodnyu nauchnyu jurnal № 7(100), chast 2 “Nauchnyu Fokus” noyabrya, 2023 201.
21. Salamov I., Kazakova Z. S., Nazarova M. S., & Jonibekov F. B. (2022). Prospects for digitalization of order tables in infrastructure development in agriculture of the republic of uzbekistan.
22. Internet ma’lumotlari va boshqa manbalar.



# Yashi

IQTISODIYOT  
Va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

## 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodi materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027  
Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan.